

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA XAVFSIZLIK VA IJTIMOIIY BARQARORLIKNING DIALEKTIK ALOQADORLIGI

Maxammatov Otabek Saydaaliyevich

Samarqand davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi (DSc),

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: maxammatov-o@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22637374>

Qabul qilindi: 1-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 3-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 5-sentabr 2026-yil

Annotatsiya.

Mazkur tezisda axborotlashgan jamiyat sharoitida xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikning o'zaro dialektik aloqadorligi ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Axborot oqimlarining jadallashuvi, raqamli transformatsiya va yangi tahdidlarning shakllanishi sharoitida xavfsizlikning jamiyat barqarorligini ta'minlashdagi o'rni ochib beriladi. Shuningdek, axborot xavfsizligi, ijtimoiy ishonch, qadriyatlar va barqaror taraqqiyotning o'zaro bog'liqligi asoslanadi.

Kalit so'zlar:

Axborotlashgan jamiyat, xavfsizlik, ijtimoiy barqarorlik, dialektik aloqadorlik, axborot xavfsizligi, raqamli transformatsiya, ijtimoiy ishonch, qadriyatlar, barqaror taraqqiyot, ijtimoiy-falsafiy tahlil.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilish vositalari tobora kuchayib bormoqda. Bu esa axborot makonidagi erkinlik va xavfsizlik o'rtasida keskin ambivalentlikni yuzaga keltiradi. Axborot xavfsizligi masalasini ijtimoiy-falsafiy kontekstdan tahlil etar ekanmiz, biz eng avvalo, insonning ontologik maqomini, uning axborot muhitidagi mavjudlik formalarini tahlil etishimiz zarur. Tadqiqotchi J.K.Biyimbetov ta'kidlaganidek, "Hozirgi kunda dunyo rivojlanishining manbasi birinchi navbatda axborot hisoblanadi. Undan ijtimoiy strukturani boshqarishda ham, sanoatni rivojlantirishda ham keng foydalanmoqda. Axborotsiz insoniyat jamiyatining rivojlanishi juda asta-sekin amalga oshadi. Shuning uchun ham, axborot bugungi kun fanining eng dolzarblikga ega bo'lgan muammolaridan hisoblanadi" [2;11]. Bu yerda inson faqat axborot iste'molchisi emas, balki shu axborotlar orqali shakllanayotgan yangi g'oyaviy makonning subyekti va obyekti sifatida qaraladi.

Tahlil va natijalar

G'oyaviy, axboriy, psixologik va kognitiv ta'sirlar insonning dunyoni idrok etishi, ijtimoiy voqelikni baholashi, qadriyatlarni tanlashi va qaror qabul qilish jarayonlariga ta'sir ko'rsatish orqali xavfsizlikning yangi o'lchamlarini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, xavfsizlikni faqat tashqi tahdidlardan himoyalaniş holati sifatida emas, balki inson va jamiyat mavjudligining barqarorligi, qadriyatlar tizimining daxlsizligi hamda erkin va mas'uliyatli tafakkurning ta'minlanganlik holati sifatida talqin qilish zarur.

Mazkur jarayon xavfsizlik fenomenining ontologik va aksiologik asoslarini chuqur tadqiq etishni taqozo etadi. Chunki, xavfsizlik masalasi, bir tomondan, inson va jamiyatning mavjud bo'lish shartlari bilan, ikkinchi tomondan esa, mazkur mavjudlikning qanday qadriyatlar asosida tashkil etilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Demak, axborotlashgan jamiyatda xavfsizlik muammosi "nimadan himoyalaniş kerak?" degan savol bilangina cheklanmay, "inson nimani qadrlaydi?", "qanday borliqni

saqlab qolish zarur?”, “erkinlik va xavfsizlik o‘rtasidagi muvozanat qanday ta’minlanadi?” kabi fundamental falsafiy savollarni ham kun tartibiga olib chiqadi.. Shu jihatdan tadqiqotchi I.A.Suvanov haqli ravishda qayd etadi: “.....har qanday tajovuz, tahdid o‘z-o‘zidan milliy ma’naviyat inqiroziga, mamlakat xavfsizligi, uning milliy manfaatlarini, jismonan va ma’nan sog‘lom avlod kelajagini ta’minlash yo‘lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin” [1;].

Axborotlashgan jamiyatda xavfsizlik tushunchasi - bu endilikda texnologik himoya vositalari bilan cheklab bo‘lmaydigan, balki inson ongi, qadriyatlari, g‘oyaviy immunitetini shakllantirishga qaratilgan tizimli yondashuvni talab etadi. Ma’rifatparvar jadid namoyandasi Abdurauf Fitrat yozganidek, “bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning quroli sog‘lom jism-u tan, aql va axloqdir. Bunda saodat, izzat, osoyishtalik, rohat, sharaf va e’tibor kerak bo‘lsa tezroq avlod tarbiyasi usullarini bilib olib, bolalarimizni shu usul va qoidalar asosida tarbiya etishimiz lozim”[3;60]. Shu ma’noda, axborot makonidagi tahdidlar faqat tashqi emas, balki ichki – endogen shakllarda namoyon bo‘lmoqda. Bu esa xavfsizlik paradigmasini milliy qadriyatlar, madaniyat va tarixiy ongning himoyasi bilan bevosita bog‘laydi. Axborot muhitidagi “g‘oyaviy infeksiyalar”ni aniqlash, ularni diagnostika qilish va bartaraf etish uchun falsafiy-dagnostik metodologiyaga ehtiyoj sezilmoqda. Bu jarayonda “ta’lim, media, madaniyat va siyosiy kommunikatsiya vositalari orqali ongga yo‘naltirilgan yot g‘oyalarni tanib olish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi”. Natijada, axborotlashgan jamiyatda xavfsizlik paradigmasi - bu ijtimoiy-falsafiy kategoriya bo‘lib, u jamiyat tafakkurining mustaqilligi, g‘oyaviy suverenitet va tafakkur erkinligini saqlab qolish bilan bevosita bog‘liqdir.

Axborotlashgan jamiyatda xavfsizlik paradigmasi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurda eng muhim kategoriyalardan biriga aylangan. Chunki bugungi kunda inson faoliyati, ijtimoiy institutlar va madaniy jarayonlarning ko‘p qismi raqamli makonga ko‘chib o‘tgan bo‘lib, xavfsizlik endilikda faqatgina jismoniy yoki iqtisodiy muhofaza bilan chegaralanmaydi, balki axborot oqimlari, virtual identitetlar, madaniy barqarorlik va ongni boshqarish bilan ham uzviy bog‘liqdir. Shunday sharoitda xavfsizlik paradigmasi axborotning ontologik maqomini ham, uning epistemologik asoslarini ham qayta ko‘rib chiqishga majbur etmoqda. Avvalo, axborotlashgan jamiyatning markazida ma’lumotning ustuvor qadriyatga aylanishi turadi. Bu jarayon ijtimoiy ongda yangi xavf va tahdidlarning shakllanishiga olib keladi. Axborotning haddan ziyod ko‘pligi, uning tezkor tarqalishi va dezinformatsiyaning oson ishlab chiqarilishi natijasida inson o‘zining kognitiv barqarorligini yo‘qotishi mumkin. Shu bois xavfsizlik paradigmasi nafaqat davlat institutlari, balki shaxsiy ongni himoya qilish mexanizmlarini ham o‘z ichiga oladi. Bunday yondashuv “axborot xavfsizligi” tushunchasini kengaytiradi: u endi texnik vositalarni himoya qilish emas, balki ijtimoiy-madaniy immunitetni shakllantirish vazifasini ham bajaradi.

Ikkinchidan, axborotlashgan jamiyatda xavfsizlik paradigmasi ijtimoiy boshqaruv mexanizmlarining transformatsiyasiga olib keladi. Chunki davlat va jamiyat o‘zining barqarorligini ta’minlash uchun nafaqat huquqiy choralar, balki axborot oqimlarini tartibga soluvchi falsafiy-me’yoriy tamoyillarni ham ishlab chiqishi kerak. Shu ma’noda, xavfsizlik paradigmasi global miqyosda hamkorlikka asoslanadi: axborot texnologiyalari chegaralarni bilmaydi, demak xavf-xatarlar ham transmilliy xususiyat kasb etadi. Bunga qarshi kurashda milliy qadriyatlarni saqlash, madaniy xilma-xillikni himoya qilish va yoshlar ongida tanqidiy tafakkurni kuchaytirish asosiy yo‘nalishlarga aylanmoqda.

Uchinchidan, axborotlashgan jamiyatdagi xavfsizlik paradigmasi dialektik xususiyat kasb etadi: bir tomondan, u erkinlik va axborotga ochiqlikni taqozo etsa, ikkinchi tomondan, shu erkinlik orqali yuzaga keladigan nazoratsiz oqimlar jamiyat barqarorligiga putur yetkazishi mumkin. Shu bois zamonaviy falsafiy yondashuvda xavfsizlik paradigmasi muvozanat tamoyiliga asoslanadi. Ya’ni, jamiyatning ma’naviy qadriyatlari va raqamli texnologiyalar uyg‘unlashib, insonni texnologiyaga qaram emas, balki undan ongli foydalanadigan subyekt sifatida shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Tadqiqotlarda keltirilganidek, “Axborot jamiyatida shaxsiy xavfsizlikni o‘rganishga dialektik yondashuvni qo‘llash bizga individual erkinlik va davlat va jamiyat nazorati zarurati o‘rtasidagi asosiy qarama-qarshiliklarni aniqlashga; texnologik rivojlanish, axborotning o‘sishi va xavfsizlik konsepsiyasining o‘zgarishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunishga; va individual huquqlar, jamoaviy

manfaatlar va raqamli davrning qiyinchiliklari o'rtasida muvozanatni topish uchun kontseptual asosni ishlab chiqishga imkon beradi"[4;47].

Bundan tashqari, xavfsizlik paradigmasining mohiyati ijtimoiy jarayonlardagi ishonch, legitimlik va axborot orqali uyg'unlikni saqlash masalasi bilan ham bog'liq. Ingliz sotsiologi Entoni Giddens bu nuqtada "ontologik xavfsizlik" tushunchasini ilgari suradi: "ontologik xavfsizlik - bu inson hayotini tashkil etuvchi voqealar va munosabatlardagi uzluksizlik tuyg'usidan kelib chiqadigan barqaror ruhiy holat. Bu boshqa odamlarga asosiy ishonchni, izchil o'zini his qilishni va hayotning mazmuni va yo'nalishi borligiga ishonchni o'z ichiga oladi. Bu uzluksizlik hissi buzilganda - odamlar endi eng asosiy ekzistensial savollarga javob berish uchun tanish tizimlarga tayana olmaganlarida - ontologik xavfsizlik boshlanadi"[5]. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan xavfsizlik masalasini axborot kontekstida tushunish, insonning raqamli mavjudlikda shakllanuvchi epistemik avtonomiyasiga e'tibor qaratishni talab qiladi.

Xulosa

Axborotlashgan jamiyat sharoitida xavfsizlik fenomeni inson, jamiyat va texnologiya o'rtasidagi o'zgaruvchan munosabatlar bilan belgilanadigan murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisadir. Axborot va raqamli texnologiyalarning ijtimoiy borliqdagi mavqei kuchaygani sari xavfsizlikning mazmuni ham texnik muhofaza doirasidan chiqib, inson tafakkuri, erkinligi, qadriyatlar va ijtimoiy barqarorligini ta'minlash masalasiga aylanmoqda.

Tadqiqot natijalari xavfsizlikning ontologik va aksiologik mazmuni o'zaro uzviy bog'liqligini ko'rsatadi: uning ontologik jihati inson va jamiyat mavjudligining barqarorligini, aksiologik jihati esa ushbu mavjudlikni belgilovchi fundamental qadriyatlarni muhofaza qilishni ifodalaydi. Shu bois zamonaviy xavfsizlik konsepsiyasi texnologik himoya bilan bir qatorda mustaqil tafakkur, axborotiy daxlsizlik, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy mas'uliyatni ta'minlashga yo'naltirilishi lozim.

O'zbekistonda ham axborot xavfsizligiga tahdidlarga qarshi iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy va boshqa choralarni amalga oshirishning qonuniy asoslari belgilangan [6]. Demak, axborotlashgan jamiyatda xavfsizlikni ta'minlash texnologik himoya va ijtimoiy-gumanistik qadriyatlarning uyg'unligiga asoslangan yaxlit yondashuvni talab etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Biyimbetov J.K. Axborot va jamiyat axborot xavfsizligining ijtimoiy-falsafiy tahlili. Fal.f.b.f.d. (PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2024. – 46 b.
2. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari // Mas'ul muharrir: D. A. Alimova. Tarj. va izohlar muallifi Sh. Vohidov. - 2-ichi nashr. - T.: "Ma'naviyat". 2000. — 112 b.
3. Suvanov I.A. Axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi ta'lim-tarbiya va targ'ibot-tashviqot asosida kurashish imkoniyatlari // <https://uza.uz/posts/605843>
4. Бурнашев Р.Ф., Мавлянова Л.Р., Ибадуллаева М.М. Информационное общество как вызов безопасности личности: философский анализ // Universum: общественные науки : электрон. научн. журн. – Новосибирский, 2024. - №12(115). – С.44-47 URL: <https://7universum.com/ru/social/archive/item/18850>
5. Ontological Insecurity in the Modern World: Understanding Its Origins // <https://sociology.institute/sociological-theories-concepts/ontological-insecurity-modern-world-origins/>
6. O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrda O'RQ 439-II-son "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"i Qonuni // <https://lex.uz/docs/-52268>
7. Ризаев И. И., Хаккулов Н. К. Влияние цифровой культуры на неприкосновенность жизни человека в обществе //Оргкомитет. – 2023. – С. 342.
8. ХАККУЛОВ Н. К., РИЗАЕВ И. И. Цифровая культура и неприкосновенность личности //Новые технологии в учебном процессе и производстве. – 2023. – С. 605-606.
9. Turayevich U. R. Qahramonovich HN Zamonaviy dunyoning axloqiy muammolari-zo 'ravonlik falsafasi //Ustozlar uchun. – 2024. – T. 57. – №. 4. – С. 422-425.